

## “SHO‘RTANNEFTGAZ” MCHJ OBYEKTLARIDAGI MASH‘ALA GAZLARINI QAYTA FOYDALANISHGA TIKLASH MUAMMOLARNI O‘RGANISH

**J.Sh. Rabbimov**<sup>1</sup>

**J.I. Tog‘ayev**<sup>2</sup>

- 1- QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası assistenti  
2- QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası 3-kurs talabasi

E-mail: [rabbimov1933@gmail.com](mailto:rabbimov1933@gmail.com)

[togayevj21@gmail.com](mailto:togayevj21@gmail.com)

**Annotatsiya.** Neftning tarkibida yengil uglevodorodlar mavjud bo‘lib, undan samarali foydalanishda bu fraksiyalarni yo‘qotilishini bartaraf qilish yo‘llarini o‘rganishda chet el va respublikamizda olib borilayotgan ishlarni o‘rganish hamda tahlil qilish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. “Sho‘rtanneftgaz” MChJ va “Muborakneftgaz” MChJ korxonalarining konlarida neftning tarkibidagi yo‘ldosh gazlarni ajratib olish va uni qayta ishlash ishlarini jadallashtirish bugungi kunda o‘ta dolzarb hisoblanadi. Neftkimyo sanoatining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq holda mustahkam tejamkor xom-ashyo bazasini yaratishda neft va gazdagi yengil uglevodlarning yo‘qotilishini oldini olish va taklash muhim masalalardan hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** butan, pentan, absorbsiya, kondensatsiya, dietilenglikol, yo‘ldosh gaz.

## STUDYING THE PROBLEMS OF REUSING FLARE GASES IN THE FACILITIES OF "SHORTANNEFTGAZ" LLC

**Abstract.** Oil contains light hydrocarbons, information is given on the study and analysis of work carried out abroad and in our republic in the study of ways to eliminate the loss of these fractions with its effective use. Accelerating the production and processing of associated gases contained in oil at the fields of the enterprises of LLC Shortneftgaz and LLC Muborakneftgaz is extremely important today. In connection with the rapid development of the petrochemical industry, the prevention and recovery of losses of light hydrocarbons in oil and gas is one of the important issues in creating a solid and economical resource base.

**Key words:** butane, pentane, absorption, condensation, diethylene glycol, satellite gas.

Yoʻldosh neft gazlaridan foydalanish va utilizatsiya qilish holati bugungi kunda hech kimni qoniqtirmaydi. Bu masala boʻyicha butun dunyoda talablar qattiq qoʻyilgan boʻlib, neft qazib oluvchi tashkilotlar atmosferaga chiqarib yuboriladigan gazlarni qisqartirishga bogʻliq boʻlib, xom ashyolardan foydalanishni tejamkor texnologiyalaridan foydalanishni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilishdan iboratdir.

Neftning tarkibidagi yoʻldosh gazlar oʻzining tuzilmasi boʻyicha gazni qayta ishlovchi korxonalar uchun kerakli boʻlgan xom ashyo resursi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda undan foydalanish ekologik muammo yechimlarini topishda asosiy yoʻllardan biri hisoblanadi hamda gazni qayta ishlovchi salbiy taʼsir etish faoliyatini kamaytirish bilan bogʻliqdir.

Amalda bajarilgan maʼlumotlarga muvofiq har xil planetada 170-180 mlrd.m<sup>3</sup> hajmdagi neftning tarkibidagi yoʻldosh gazlar atmosferaga yoqib chiqariladi. Bir tonna qazib olinadigan neftning tarkibida 100 m<sup>3</sup> dan -1000 m<sup>3</sup> gacha yoʻldosh gazlar mavjud boʻladi. Neftning tarkibidagi yoʻldosh gazlarni utilizatsiya qilish masalasi ekologik masalalarning talablarini bajarishni taqozo qiladi. Ikkinchi tomondan qaralganda yoʻldosh gazlardan foydalanishni utilizatsiya qilish muammosi bir-biri bilan bogʻliq boʻlgan uch ta asosiy global: ekologik, iqtisodiyot, texnologik yoʻnalishni tashkil qiladi.

Maʼlumki neft mahsulotining tarkibidagi yoʻldosh gaz koʻp komponentli hisoblanadi. Tabiiy gazning tarkibida koʻproq metan gazi boʻladi. Neftdagi yoʻldosh gazning tarkibida ham etan, propan, butan va boshqa chegaralangan miqdordagi uglevodorod gazlari mavjud. Bundan tashqari suv bugʻlari, azot, uglevodorod nardon gazlar va oltingugurt mavjud boʻladi.

Neft qazib oluvchi korxonalarda neftning tarkibidagi yoʻldosh gazni toʻliq utilizatsiya qilishning imkoniyati yoʻq. Bunday holat uchun texnologiyalar ishlab chiqilgan lekin ularni tadbiiq qilish iqtisodiy samaradorlik jihatidan hamma vaqt ham oʻzini qoplamaydi.

Shuning uchun neftning tarkibidagi yoʻldosh gazlarni utilizatsiya qilish jarayoni mashʼalada yoqish yoʻli orqali sodir boʻladi va quruq gazning ikki oksidi hamda boshqa mahsulotlarning paydo boʻlishi bilan kuzatiladi.

Bunday holat oʻz navbatida atrof muhitni ifloslanishga va atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarni belgilangan normadan oshib ketishiga olib keladi va odamlarning sogʻligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Neftning tarkibidagi yoʻldosh gazlar ishlab chiqarish korxonalaridagi qozonlarda va maishiy maqsadlarda yoqish orqali utilizatsiya qilinadi. Yirik va oʻrtacha kattalikdagi konlarda 60% gacha qazib olish, kichik konlarda esa xarajatlar

konlardagi gazni tayyorlashga, siquv kompressor stansiyasini qurilishiga va gaz uzatmalariga sarflanishi iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi.

Ilmiy tomondan asoslaydigan bo'lsak, yo'ldosh gazlarni utilizatsiya qilishda va tejamkorlik bilan foydalanishda bugungi kunda hech qanday muammolar yo'q va bu yerda bir savol mavjud: bunday texnologiyani qo'llash iqtisodiy jihatdan samaralimi yoki yo'qmi degan savol tug'iladi.

Bu savolga javob berish murakkablikni talab qilmaydi. Neftning tarkibidagi yo'ldosh gazlardan tejamkorlik bilan foydalanishni investitsiya loyihasining narxini ishlab chiqarish obyektlariga, sotib olishga, jihozlarni montaj qilishga, ekologik to'lovlarning o'lchamlari bilan xizmat ko'rsatish xarajatlari va gazni yoqish uchun to'lanadigan shtraflarga ketadigan xarajatlar ma'qulroq ko'rinadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, neftni qazib olish kompaniyalari uchun foydasiz loyihalarni qo'llagandan ko'ra shtraf to'lagan ma'qulroq ko'rinadi. Atrof muhitga keltiriladigan zararlarni va odamlarni sog'ligiga zarar keltirishni hisobga oladigan bo'lsak, mash'alaga beriladigan yo'ldosh gazlarni berilishini kamaytirish zurrur bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Agzamov A.X. "Neft va gazni dunyo energiya balansidagi o'rni", Toshkent, "Neft va gaz" jurnali -2015, № 4/2015b 67-70 bet.
2. Алькушин А.И., "Эксплуатация нефтяных и газовых скважин", Москва, Недра – 1989, 360 стр.
3. Rabbimov, J. (2022). UGLERODLI PO 'LATLARNING KONSTRUKTIV MUSTAHKAMLIGINI VA KORROZIYAGA BARDOSHLILIGINI OSHIRISH. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 227-234.
4. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., Bo'riyev, S., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING GIDROGEOLOGIK TUZILISHI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 242-245.
5. Турдиев, Ш. Ш. У., Комилов, Б. А. У., & Раббимов, Ж. Ш. (2022). АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПРОБЛЕМЫ РАЗРАБОТКИ ПОДГАЗОВЫХ НЕФТЯНЫХ ЗАЛЕЖЕЙ. *Universum: технические науки*, (11-3 (104)), 58-62.
6. Shahboz, S., Komilov, B., & Rabbimov, J. (2022). YO 'LDOSH GAZLARNI TOZALASH, SUYUQLIK, GAZNING HARORATI VA YENGIL UGLEVODORODLARNI UTILIZATSIYA QILISHNING ZARURLIGI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 677-680.

7. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). Suyultirilgan uglevodorod gazlarini olishning resurslari va manbalari. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 505-509.

8. Shermamat o'g'li, T. S., Asqar o'g'li, K. B., & Karim o'g'li, K. O. (2022). STG (LNG) TABIIY GAZDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIDIR. *Journal of new century innovations*, 10(2), 35-37.

9. Shermamat o'g'li, T. S., Shodmonkulovich, R. J., & Rustamovich, B. A. (2022). SUYULTIRILGAN TABIIY GAZNI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASHNING IMKONIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 10(2), 38-41.

10. Rabbimov, J. S. (2022). QATLAMDAN KELAYOTGAN OQIMNI JADALLASHTIRISH MAQSADIDA QATLAMGA KISLOTALI ERITMA BILAN ISHLOV BERISH (MURODTEPA MAYDONI MISOLIDA). *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 373-378.

11. Shermamat o'g'li T. S. et al. NEFT GAZLARIDAN SUYULTIRILGAN UGLEVODORODLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TADQIQOTLASH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 16. – №. 4. – С. 67-74.

12. Fozilov, S. F., Fozilov, X. S. O'., Rabbimov, J. Sh., & Raxmatov, A. Q. O' (2022). Neft moylarining mahalliy tabiiy adsorbentlar asosida tozalash va ulardan mastikalar olish. *Science and Education*, 3(10), 285-288.

13. Shermamat o'g'li, Turdiyev Shahboz, Rabbimov Jaxongir Shodmonkulovich, and Boboxonov Abbas Rustamovich. "SUYULTIRILGAN TABIIY GAZNI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASHNING IMKONIYATLARI." *Journal of new century innovations* 10.2 (2022): 38-41.

14. Shermamat o'g'li, Turdiyev Shahboz, Komilov Botir Asqar o'g'li, and Karimov Oybek Karim o'g'li. "STG (LNG) TABIIY GAZDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIDIR." *Journal of new century innovations* 10.2 (2022): 35-37.

15. Shermamat o'g'li, Turdiyev Shahboz, Rabbimov Jaxongir Shodmonkulovich, and Azimov Azamat Faxriddin o'g'li. "PAST BOSIMLI YO'LDOSH GAZLARNI UTILIZATSIYA QILISH MASALALARNI TEJAMKORLIK BILAN AMALGA OSHIRISH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 14.4 (2023): 83-86.

16. Shermamat o'g'li, Turdiyev Shahboz, Rabbimov Jaxongir Shodmonkulovich, and Sharopov Ulug'bek Alijon o'g'. "NEFT GAZLARIDAN SUYULTIRILGAN UGLEVODORODLARNI ISHLAB CHIQRISHNI

TADQIQOTLASH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 16.4 (2023): 67-74.

17. Rabbimov, J. Sh, B. A. Komilov, and U. A. Sharopov. "QAYTA TIKLANMAYDIGAN AN'ANAVIY ENERGIYA MANBALARINING CHEGARALANGANLIGI VA UNGA BOG 'LIQ GLOBAL VA MINTAQAVIY MUAMMOLAR." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 30.2 (2023): 132-136.

18. Rabbimov, J. Sh, and B. A. Komilov. "GAZSIMON FRAKSIYALARNI KONDENSATSIYASI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 30.2 (2023): 128-131.

19. Turdiyev, Sh Sh, et al. "GAZ REJIMIDA ISHLAYDIGAN GAZ OSTI NEFT UYUMLARINI ISHLASH TIZIMLARI." *Евразийский журнал академических исследований* 3.1 Part 5 (2023): 64-68.

20. Turdiyev, Sh Sh, et al. "QUDUQ TUBIGA KISLOTA BILAN ISHLOV BERISHNING TEXNOLOGIK KO 'RSATKICHLARI HISOBI." *Евразийский журнал академических исследований* 3.1 Part 5 (2023): 58-63.